QADIMGI ZOMIN TARIXI XUSUSIDA

To'rayev E'zoza, Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti,
1-bosqich doktoranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning qadimiy hududlaridan biri bo'lgan Ustrushonaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanmish Zominning qadimgi tarixi haqida ba'zi mulohazalar keltirilgan. Shuningdek Zominning asrlar osha tarixini o'rgangan tarixchi va arxeologlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Zomin, rustoq, Ustrushona, Morguzar, xioniylar, turklar, arablar, Afshinlar. Tohiriylar, Somoniylar.

Аннотация: В данной стать представлены некоторые комментарии о многовековой истории Зомина, который считается главной составляющей Уструшоны, одного из древних районов Узбекистана. Упоминаются также историки и археологи, изучавшие многовековую историю Зомина.

Ключевые слова: Зомин, рустак, Уструшона, Моргузар, хиони, турки, арабы, афшины, тахириты, сомониты.

Annotation: This article contains some comments about the ancient history of Zamin, which is considered the main component of Ustrushona, one of the ancient regions of . In addition, historians and archaeologists who have studied the centuries-old history of Zamin are also listed.

Key words: Zomin, Rustaq, Ustrushona, Morguzar, Khionites, Turks, Arabs, Afshins. Tahirites, Somanites.

Tarixni obyektivlik, xolislik tamoyillari asosida bilish yangitdan milliy davlat barpo etayotgan xalq uchun g'oyat zarur. Zamonamizning ilg'or millatlari o'z tarixini tanqidiy ko'z bilan mushohada qilish orqali O'z milliy mentalitetlarini shakllantirganlar. XXI asrga rivojlanishning zamonaviy taraqqiyot yo'li bilan kirib kelgan, boy madaniyati va bebaho ma'naviyatga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining

ming yilliklar qa’riga kirib borgan tarixiy o’tmishi bilan alohida o'rin tutadi. O'lkamiz hududlarida bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar, turli davrlarda xalq farovonligi va taraqqiyotini ko'zlab o'tkazilgan ko'plab islohotlar, shuningdek, yuksalish va inqiroz holatlari, cheł el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari yurtimizning nihoyatda rangbarang tarixidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, shaxs jamiyatda o'z o'rni va vazifalarini tushunib olishida, hayotiy mo’ljallarini o'zining maqsadi va ehtiyojlariga, imkoniyatlariga mos tarzda to'gri belgilashida ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fani muhim o'rin tutadi [7:6]. Xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasiga, jahon xalqlari orasida tutgan o'rniga baho berishda, uni boy hayotiy va tarixiy tajribalaridan foydalanishda, oliyjanob fazilatlari va an'analarini o’rganish hamda boyitishda O’zbekiston tarixi beqiyos ahamiyatga ega,

Shuning uchun ham bu tarix eng qadimgi davrdan boshlab ko'p ming yillar davomida ajdodlarimiz va xalqimiz tarixi sifatida nafaqat o'zbekistonlik, halki xorij olimlari tamonidan ham tan olib o’rganildi, tadqiq etildi va ayni paytda shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar izchillik bilan davom etmoqda [8.25].

Bizga ma'lumki, buyuk fotih Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng u tuzgan davlat parchalanib ketdi_ Mil, avv. 312-yilda Salavka Suriyadan Sirdaryogacha bo’lgan hududlarda o'z davlati- Salavkiylar podsholigiga asos soldi. Bu davlat tarkibida Ustrushonaning tarkibiy qismi sifatida biz ushbu maqolamizda ko'rib chiqmoqchi bo’lgan Zomin ham bor edi. Davlat asoschisi Salavka va Antiox davrlarida mamlakatning shimoli-sharq tomonidan xavf solayotgan ko'chmanchilarga qarshi kurashishlar natijasida Sirdaryo bo'ylarida Antioxiya shahri bunyod etildi.

Bir-birlari bilan o'zaro ichki kurashlar natijasida Salavkiylar davlatl mil. avv. III- asrning o'rtalarida zavolga yuz tutib, uning takibidan birin- ketin mustaqil davlatlar ajralib chiqa boshladi, Ana shunday davlatlardan biri mil avv 250-yilda

Baqtriya hokimi Diodot boshchiligida tashkil topgan Yunon-Baqtriya davlati edi. Shuningdek, bu davrda Salavkiylar davlatidan hozirgi Eron hududida Arshak boshchiligida Parfiya davlati ham mustaqillikka erishdi. Qolaversa bu holat sak qabilalarini birlashib, Sirdaryoning o'rta havzalarida o'zlarining Qang' davlatiga asos solishiga imkon hozirladi va ular buni amalga oshirdilar ham.

Milodiy V asrgacha mavjud bo'lgan ikkita qishgi va yozgi qarorgohlarga ega bo'lgan Qang davlati sharqda Farg'ona (Davan), shimoli sharqda Usun davlatlari, shimoli garbda Sarisu, g'arbda Sirdaryoning quyi oqimi bilan chegaradosh bo'lgan [3:34-35]. Bu davlat tarkibida Iskandariya Esxata, Dizak (G'azo)[4:43] bilan bir qatorda Zomin hududlari ham bo'lgan.

Shunday qilib, Qang' davlati mavjud bo'lgan asrlarda Zomin hududi o'troq aholi va ko'chmanchi chorvadorlar makoni bo'lib, o'troq aholi asosan yirik suv manbai bo'lmish Zominsuvning atrofida hayot kechirgan. Chunonchi, Zorminsoy manbaining chap tomonida joylashgan Qo'rg'ontepada mil.aw. II-I- asrlarda ham hayot bo'lganligi isbotlandi [3:71] Ko'chmanchi chorvadorlar esa tog' va tog' oldi joylarda tirikchilik qilishgan. Bu haqida yunon tarixchilarining asarlarida ham ma'lumotlar uchraydi. Bu haqida yirik tarixchi olim Karim Shoniyozov, "Ptolemey asarida shunday deydi: 'Sug'd tog'ining orqasida oksidranklar, dribaktlar va qandarlar, tog' etagida esa mardienlar yashaydilar". Bu yerda "Sug'd tog'lari" deb Amu va Sirdaryo oralig'idagi (Turkiston, Nurota, Morguzar) tog'lari nazarda tutulmoqda va yuqorida nomlari keltirilgan qabilalar Turkiston, Morguzar tog'laridan Sirdaryo bo'ylarigacha bo'lgan cho'llarda joylashgan [4:68].

Ma'lumki. mil. avv. II asrning oxirida Xun xoqonligi hujumlariga uchragan tarixda yuechji nomi bilan tanilgan turkiy qabilalar Sug'diyona orqali Baqtriyaga o'tib, u yerdagi Yunon-Baqtriya davlatini qulatadi va Kushon podsholigiga asos soladi. Keyingi asrlarda Qang davlatining asosiy eng yirik viloyatlaridan bo'lmish Shi (Chirchiq daryo vodiysi)ning janubi-g'arbida joylashgan Suyduyshani (Ustrushona viloyati tarkibidagi Zomin hududlariga ham o'z tasirini o'tkazdi[5:51].

Ayniqsa bu jarayon milodiy I-II- asrlarda kuchaydi. Jumladan, milodiy 255- 265-yillarda Sug'diyona Kushon davlati tarkibiga qo'shib olinadi va shu vaqtdan boshlab (Sug'diyona, yanada aniqrog'i Samarqand va uning atrofidagi yerlar). Mimo (viloyati, ya'ni Samarqandning janubida joylashgan bo'lib, arab-fors manbalarida Maymurg' nomi bilan mashhur) hokimlari Kushaniyada asosiy ro'l o'ynagan yuechji qabilasiga mansub kishilardan (hukmron xonadon kishilaridan) tayinlana boshlanadi[5:53]. Ular esa umumiy Kushon davlatining Qang' davlatiga nisbatan munosabatiga qarab o'ziga chegaradosh viloyatlar bilan munosabat olib bordi. Chunonchi, Mimo viloyati shimoli sharqda Usrushani (Xo'jand bilan Jizzax orasidagi viloyat, uning tarkibida Zomin hududlari ham bo'lgan) bilan chegaradosh edi [5.56]

Markaziy Osiyo tarixida muhum rol o'ynagan, asosiy markazi hozirgi Surxondaryo viloyati Termiz atrofida bo'lgan bu davlat O'rta Osiyoda milodiy IV asrgacha hukm surdi [6:6]

Tarixiy dalillarga murojaat qiladigan bo'lsak. IV-asr o'rtalarida O'rta Osiyoga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan ko'chmanchi chorvador xion nomli turkiy qabilalar kirib kela boshlaydi. Ular o'z hukmdori Grumbat boshchiligida Sug'diyona, Ustrushona hududlarini egallaydi va shu asrning 70-yillarida Sirdaryodan Amudaryogacha bo'lgan hududlarda o'z davlatiga asos soladi. Bu davrda Ustrushona, "shu jumladan uning tarkibidagi Zomin hududlariga ko'chmanchi turkiy qabilalar sezilarli ta'sir etgan holda, ko'pchiligi vohada yashab qoladi.

Keyingi V asrning o'rtalarida tarixda eftaliylar bilan mashhur Vaxshunvar ismli shoh boshchilik qilgan yana bir turkiy qabilalar Sirdaryodan o'tib bir qancha hududlarni, shu jumladan Ustrushonani egallab, bu yerda mavjud ho'lgan Xioniylar davlatiga barham beradi. Ular o'z davlatlarini tuzub, chorvachilik, o'troq aholi bilan qorishib, dehqonchilik, hunarmanchilik va boshqa yumushlar bilan mashg'ul bo'ladilar.

Xoqon Bumin tomonidan VI asrning o'rtalarida (552 y) Janubiy Sibir va Oltoy hududida asos solingan Turk xoqonligi kuchayib, eftaliylarga qarshi yurísh boshlaydi va 563-yildagi Parak (Chirchiq) daryosi bo'yida bo'lgan hal qiluvchi jangda g'alaba qozonadi, butun Choch vohasini egallagan Turk xoqonligining Istami boshchiligidagi qo'shini, Usrtushonaning katta - kichik shaharlarini birin-ketin egallaydi. Shundan so'ng ular Samarqand. Naxshab, Kesh, Buxoro kabi yirik shaharlarni ham qo'lga kiritib, eftaliylarning hukmronligiga chek qo'yadi. Janubiy Sibir. Yettisuv. Sharqiy Turkiston va Mavarounnahr hududlaridan iborat bo'lgan Turk xoqonligi ma'lum sabablarga ko'ra VI asrning 80-yillariga kelib ikkiga: Sharqiy va G'arbiy xoqonlikka bo'linib ketadi. Tarkibida Zomin hududlari bo'lgan Ustrushona G'arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kiradi va xoqonlikning hukmronligi O'rta Osiyoga arablarning hujumlarigacha davom etadi.

Umuman Xioniylar, eftaliylar va Turk xoqonligi davrida hukmdor shaxslar mahalliy hokimliklarning ichki ishlariga aralashmadilar, aksincha ularning siyosiy va iqtisodiy boshqaruvini o'zlariga topshirdilar va faqat soliqlar olish bilan cheklandilar xolos. Oqibatda arablar bosqinigacha bo'lgan vaqtda Movarounnahr hududlarida 15 dan ortiq, ichki va tashqi siyosatda deyarli mustaqil ish yuritadigan hokimliklar tashkil topdi. Ana shunday yirik mahalliy hokimliklardan biri Xitoy manbalarida IV-V- asrlarda mustaqil hokimlik deb tilga olingan Ustrushona muzofoti bo'lib, uning tarkibida bugungi Zomin hududlari ham bor edi. Tarixiy manbalarda turlicha, Surushana, Shurushana, Asrushana, Osrushana kabi nomlar bilan tilga olingan Ustrushona g'arbda Samarqand, shimolda Shosh_ janubda Kesh, sharqda esa Farg'ona bilan chegaradosh bo'lgan. Arab muarrixlarining ma'lumot berishicha, Ustrushona 18 ta: Gunjikat, Zomin, Savat, Xovas, Shovkat, Fankat, Harakana, Mink, Asbanikat, Biskar, Bankar, Vakir, Shagar, Buttam, Burnakan kabi rustoqqa bo'linib idora qilingan. Ana shunday tekislik rustoqlaridan eng yiriklaridan biri Zomin rustoqi bo'lgan. Shaharni yana o'sha davrda Sarsanda, Susanda, Sabza deb ham atashgan, shaharda o'sha davrda ko'plab sayyohlar va

savdogarlar to'xtashgan. Ular asosan, Sug'd va Fargonaga turli xil tovarlar olib o'tishgan. Bu vaqtlarda Zominda oqarsuvning serobligi natijasida bog', uzumzor, bug'doyzor va chorva mollari serob bo'lgan. Yer haydab. ekin ekish bo'yicha Zomin Ustrushona davlatida yetakchi o'rinni egallagan [7:53].

Ustrushona hokimiyati bu yillarda deyarli mustaqil bo'lib, u yerda 600 - 720 yillarda quyidagi mahaliy podsholar hukmronlik qiladi:

Chirdmish Satachari III

Satachari I Raxanch II

Raxanch I Raxanch Ill [7:53]

Satachari II

VII asrning 30-yillarida tashkil topgan Arab Xalifaligi keyingi yillarda atrofidagi Eron, Iroq, Misr, Suriya kabi hududlardagi boshboshdoqliklardan foydalanib mazkur davlatlarni bosib oladi. 651-yilda arablar Xurosonning markazi Marv shahrini ham qo'lga kiritib Movarounnahrga ilk marotaba asosan boylik maqsadida yurishlarini amalga oshira boshlaydi. Arablarning bunday talonchilik maqsadida amalga oshirgan yurishlariga qarshi kurashda mahalliy hokimlarning o'zaro birlasha olmasliklari oqibatida bir necha yillar davomida mahalliy aholi talanib, bosqinchilar juda ko'plab o'ljalar bilan ortga qaytadilar.

Arablarning Movarounnahrga asosiy yurishlari 704-yili Qutayba Ibn Muslimning Xurosonga noib etib tayinlaníshidan boshlanadi. U 705-yilda Balxni, 707-yilda ellik kunli qamaldan so'ng Poykandni, 710-yida Kesh va Naxshabni, 712-yilda Sug'd (Samarqand)ni egallab, 713-yilda Ustushona hududlariga bostirib kiradi, shunday qilib ular Ustrushonaning yirik rustoqlaridan biri Zominni ham egallaydi. Shu tariqa Ustrushona tarkibidagi Zomin hududlarida ham arablar hukmronligi o'rnatiladi.

Arablar butun Movarounnahrda bo'lgani kabi Zominda ham mahalliy xalqqa islom dinini singdirishga harakat qiladilar. Yerli xalq dini bo'lgan zardushtiylik

ta'qiqlab qo'yiladi, otashparastlar sig'inadigan joylar va tosh sanamlar yo'q qilinadi. Islom dinini qabul qilganlarga imtiyozlar ham yaratib beriladi.

Arablar davrida Ustrushonada mahalliy hokimlik tizimi saqlanib qolingan bo'lib, Afshinlar hukmronligi davom etdi:

Harabugra 720-738 yillar

Xanahara 738-800 yillar

Kavus 800 - 825 yillav

Haydar (al — Afshin) 825-840 Yillar

Xasan 840 — 869 yillar

Abdullax 860-880 yillar

Sayr 880-893 yillar [7:54].

Sulola vakillaridan ayrimlari butun Xalifalik bo'yicha ulkan obro'ga erishadilar. Ana shunday afshinlardan biri Haydar ibn Kovusdir. Mamun (813-833) davrida poytaxt Bog'dodga taklif etiladi. Unga katta iltifotlar qilinib, lashkarboshilik darajasi beriladi.

Shu tariqa Haydar uchun shuhrat va qayg'uga to'la yillar hoshlanadi. Bu vaqtda Ustrushonada uning o'g'li Hasan noib -hokim etib tayinlangan edi. Haydar ibn Kovus 831-yilda Vazantiya imperatori Feofil bilan bo'layotgan urushda hamda Misrdagi qo'zg'olonlarni bostirishda eng nufuzli lashkarboshilardan biri sifatida qatnashadi.

Bu vaqtda Xalifalik tarkibida bo'lgan Ozarboyjonda Bobek boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgan edi. Qo'zg'olonning kuchayishi natijasida xalifa Muta'sim (833-842) Vizantiya bilan yarash bitimi tuzib, o'z kuchlarini qo'zg'olonni bostrishga tashlaydi. Arab qo'shiniga xalifaning eng yirik qo'mondoni Ustrushona hokimi Haydar ibn Kovus sarkarda etib tayinlanadi_ Haydar ibn Kovus 835-838-yillarda Bobek boshchiligida qo'zg'olon ko'targan Xuramiylar harakatini bostiradi. Bu g'alaba Haydar ibn Kovusning o'z davrida islom dunyosida xalifa Muta'simdan keyingi ikkiñchi shaxsga aylanishiga olib keladi. Lekin xalifa

saroyida uning shuhratiga hasad bilan qarovchilar tomonidan fitna uyushtirilib, “xalifalika qarshi kayfiyat yuritganlik, otashparastlik dinini saqlab qolish niyatida islom dinini yolg’ondakam qabul qilganlikda ayblanib hibsga olinadi.

Bosib olingan hududlarda bo’layotgan doimiy qo’zgolonlar, toju taxt uchun tez-tez bo’ladigan kurashlar natijasida xalifalik zaiflashadi, natijada uning tarkibidan 822-yilda Xurosonda hirotlik yirik zamindor Tohir ibn Husayn boshchiligida Tohiriylar davlati ajralib chiqadi. Zomin ham Ustrushonaning takibiy qismi sifatida to Somoniylar davlati tashkil topgunga qadar bu davlat tarkibida bo’ldi.

O’sh paytda Ustrushona tarkibida bo’lgan Zomin vohasidagi Ijtimoiy-iqtisodiy hayot manzillari haqida yozma manbalar bilan bir qatorda arxeologik ma'lumotlar ham bizga xabar beradi, ularning o’rganilishi va joylashuvi haqida respublikamizda keyingi yillarda salmoqli ishlar qilindi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol yillarida qadimiy Ustrushona hukmdorlarining o'tmish tarixini moddiy madaniyat asosida o'rganib ommalashtirishda A.A. Gritsina, M. Ishoqov, M.H. Pardayev, A. Berdimurodov, F.E. Toshhoyev, T.O Omonjulov, S.S. Qudratov, B.B. To’ychiboyev. T.U Salimov. A. Otaxo’jayev, G. Boboyorov, B. Goyibov kabi tadqiqotchi olimlarimizning u yoki hu darajada salmoqli hissasi bor. Ular orasida ayniqsa Yu.F. Buryakov, A.A. Gritsina. M. Pardayev. F. Toshboyevlarning arxeologik izlanishlari ancha keng va izchilligi bilan ajralib turadi

Qadim va ilk o’rta asrlar Ustrushona tarixining bilimdoni, arxeolog A.A.Gritsinaning o'nlab tadqiqotlari vohadagi davlatchilik tarixiga qaratilgan. Voha tarixini arxeologik qazishmalarda qo’lga kiritilgan moddiy buyumlar, numizmatik materiallar va yozma manbalar asosida o’rganib kelayotgan tadqiqotchi Islomdan oldingi davrda Ustrushana hukmdorlari, Afshinlar sulolasining kelib chiqishi masalalari bo’ycha o’z qarashlarini bildirgan_ u rahbarlik qilgan arxeologik guruh Zominda Azlartepa,_ Qo'shtepa, Oqtepa.

Qo'rg'ontepa, Xitoytepa va Jartepada qazishlar olib bordi. 1995-yilgacha ular tomonidan Pishag'orsoy havzasida o'rta asrlarga oid 31ta zich joylashgan yogdgorliklar aniqlandi. Ustrushonaning poytaxti Bunjikat va yirik qal'a Zominda turli davrlarda pul zarb qilingani va maxsus qurilgan zarbxonalar bo'lishi hududning siyosiy-iqtisodiy salohiyatini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shoniyozov K. Qang davlati. T.: "Fan", 1990.

2. Xaydarov H., Usmonov Q, Jizzax tarixi. T,: "O'qituvchi". 2009

3. Suyunov S.Shimoliy –G'arbiy Ustrushonaning sug'orish tarixi. T.f.n. ilmiy darajasi uchun taryorlangan diss. Samarqand 1999.

4.Shoniyozov K. Qang' davlati. T.: "Fan", 1990.

5.Pidayev Sh. Sirli kushonlar saltanatl. T.. "Fan". 1990.

6.Грицина А. А. Уструшанские били. T.; 2000. b.

7.O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi.- T..1996.

8. B.J.Eshov, A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. 1-jild. T.: "Yangi asr avlodi" ,2014.